Halimova Sayyora Abdurahimovna (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti “Media nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, Toshkent, O‘zbekiston; sayyorahalimova1971@gmail.com)

RAUF MUZAFFARZODANING “SADOYI TURKISTON” GAZETASIDAGI PUBLITSISTIK FAOLIYATI

Annotasiya. *Mazkur maqolada jadid publitsistlaridan biri Rauf Muzaffarzodaning “Sadoyi Turkiston” gazetasidagi faoliyati tahlilga tortilgan. Xususan, uning maorif, til, matbuot xususidagi ilg‘or qarashlariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *guberniya, uezd, tanazzul, maorif, milliy madaniyat, komissiya, toshbosma, sinf, tabaqa.*

Халимова Сайёра Абдурахимовна (Университет массовых коммуникаций и журналистики Узбекистана, доцент кафедры «Теория и практика медиа», кандидат филологических наук, Ташкент, Узбекистан; sayyorahalimova1971@gmail.com)

ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РАУФА МУЗАФФАРЗОДЫ В ГАЗЕТЕ «САДОИ ТУРКИСТАН»

Аннотация. *В статье анализируется творчество одного из представителей джадидской прессы Рауфа Музаффарзода в газете «Садои Туркестан». В частности, особое внимание уделяется его передовым взглядам на образование, язык, прессу.*

Ключевые слова: *губерния, уезд, упадок, образование, национальная культура, комиссия, каменная печать, класс, классификация.*

Halimova Sayyora Abdurahimovna (Associate Professor at the “Media Theory and Practice” Department, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences; Tashkent, Uzbekistan)

RAUF MUZAFFARZODA’S PUBLICISTIC ACTIVITY IN “SADOI TURKISTAN” NEWSPAPER

Annotation. *This article analyzes the work of Rauf Muzaffarzoda, one of the modern publicists, in “Sadoi Turkistan” newspaper. In particular, special attention is paid to his advanced views on education, language, press.*

Key words: *gubernia, uezd, decline, education, national culture, commission, stone print, class, caste.*

Kirish (Introduction). O‘zbek milliy matbuoti tarixida 1914–1915-yillarda birinchi o‘zbek advokati Ubaydulla Asadullaxo‘jayev bosh muharrirligida chop etilgan “Sadoyi Turkiston” gazetasi alohida o‘rin egallaydi. Ushbu nashrda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy adabiyot, til va matbuot hamda masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bugun mamlakatimizda demokratik jarayonlar, fikrlar xilma-xilligiga, matbuot va so‘z erkinligiga keng imkoniyatlar berilmoqda. Shu bilan birga, milliy matbuotimiz tamal toshini qo‘ygan ulug‘ ajdodlarimiz – jadid ma’rifatparvarlari merosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Sadoyi Turkiston” gazetasining faol muharriri Rauf Muzaffarzoda faoliyati, uning ma’rifatparlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan maqolalari o‘zbek milliy matbuoti tarixining nodir manbalaridan hisoblanadi. Ijodkor o‘z faoliyati davomida milliy matbuot, ta’lim-tarbiya, til va imlo masalalariga alohida ahamiyat qaratgan. Rauf Muzaffarzoda faoliyatining o‘rganilishi milliy matbuotimiz tarixini xolis tadqiq etishda, jadid namoyandalarining ilg‘or g‘oyalarini yosh avlod tafakkuriga singdirishda muhim bir manbadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Millati tatar bo‘lgan Rauf Muzaffarzoda - 1889 yilda Rossiyaning sobiq Simbirsk gubernasidagi Sinchilevsk uezdi, Staro –Timoshkino qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati – tatar. Otasi dehqon bo‘lgan. Taqdir taqozosiga ko‘ra, u 1914-yilning boshlarida Turkistonga kelib qolgan [1]. Rauf Muzaffarzodaning “Sadoi Turkiston” gazetasida 40 dan ortiq dolzarb mavzularda maqolalari mavjud. Uning turmush o‘rtog‘i Sora Muzaffariyaning ham ushbu gazetaning 36- va 43-sonlarida maqolalari e’lon qilingan. Publitsistning deyarli barcha maqolalari “Rauf Muzaffarzoda”, “A. Muzaffarov” imzolari bilan chop etilgan. Bu ijod namunalari muallifning o‘tkir zehnli, bilimdon, muammolarni teran fahmlovchi, e’tiqodi kuchli publitsist bo‘lganligidan dalolat beradi. Rauf Muzaffarzoda “Sadoyi Turkiston” gazetasi to‘xtagandan so‘ng ham maqolanavislik faoliyatini davom ettirgan. Chunonchi, Munavvar qori muharrirligida nashr qilingan “Najot” gazetasida hamkorlik qilgan [2]. Ma’rifatparvar publicistsistning “Tarbiyaga ahamiyat bermaymiz”, “Maorif manbalarimiz”, “Madaniyat nardboni”, “Mustaqil insonlar”, “Taraqqiy yo‘linda”, “Yangi yildan eski tilaklar”, “Til va din”, “Milliy hayot va Turkiston musul-

monlari", "Madaniyat va biz", "Madaniy jarayon va milliy tariximiz", uch qismdan iborat "Madaniyat nardboni", "Din, millat milliyat ila qoyimdir", "Til va imlo masalasi" kabi dolzarb mavzularda yozilgan maqolalari bor. Jumladan, "Sadoyi Turkiston" gazetasining 48-sonida bosilgan "Mustaqil insonlar" nomli maqolasida muallif ta'lim va tarbiyaning inson hayotidagi o'rnini quyidagicha ta'riflaydi: "Inson asosli bir tarbiya va ta'lim ko'rmasa va nuqsonlarini ulum va funun sharti iqtizosincha isloh va takmil etmasa, anda asosli bir nuqtada sabot va xorijiy ta'sirlarg'a maqovamat xossasi tavallud topmas. Ul kishi xayolig'a kelgon asossiz va bir-biriga muxolif har bir fikrni so'ylamakdan va yozmakdan hatto e'tiqod etmakdan tortunmas. Insonni bu razolatka soladurgon narsa ul kishida ruhni ulviyat va kamolotg'a yetishduruvchi, ya'ni, bunga mutaalliq jumlai ulum va fununning yo'qlig'idir. Shuning uchundurki har yerda insonning qiymati aning mezoni bo'lub mezoni esa aning so'zi, yozuvi va amalidir" [3].

Publisistning "Yangi yildan eski tilaklar" sarlavhali maqolasida ham ilm-ma'rifatning mamlakat rivojidagi o'rni, ayniqsa, xotin-qizlarni dunyo ilmlaridan xabardor bo'lishga ijtimoiy hayotda ilg'orlar safida bo'lishga chaqiradi. Gazetada mana shu da'vatlar, e'lon qilingach, tahririyatga ko'plab maktublar kela boshlaydi. Hatto Toshkentning Sebzor dahasi, Taxtapul mahallasida istiqomat qilayotgan 15 nafar qizning ilm darajasini aniqlash uchun imtihon joriy qilinadi. Bu haqda gazeta mamnunlik bilan shunday yozadi: "Bu qizlar imtihoni butun Turkiston musulmonlarining ilm maoruf yo'liga birinchi urinishlari bo'lib, mundan so'ngra maktablarimizning adadlarini ko'paytirmog'ini janob haqdan so'rab qolurmiz" [4]. Albatta, maorif ishlarini shu darajada yo'lga qo'yish gazeta tahririyati uchun oson kechmadi. Muharrirlar nafaqat chorizm ta'qibiga, balki mahalliy ulamolar qarshiligiga ham uchragan hollari ko'p bo'lgan. Hatto Rauf Muzaffarzoda ham madrasalardagi ahvolni tanqid qilganligi uchun mahalliy ulamolar tomonidan hatto kaltaklangan [5]. Bu haqda gazeta sahifalarida ma'lumot berilgan. Jadid ma'rifatparvarlari vaqtli matbuot orqali o'lkadagi maorifning haqiqiy ahvoli yuzasidan jamoatchilikka to'g'ri va yorqin tasavvur berishga harakat qiladi. Turkistonning ta'lim masalasida ahvoli , hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar va uni isloh qilish bilan bog'liq maqolalar "Sadoyi Turkiston" gazetasining deyarli barcha sonlaridan o'rin oladi. Rauf Muzaffarzoda bilan bir qatorda Mirzozodaning "Ilm va maorif", Mo'minjon Muhammadjonovning "Bizda muallimlar", "Eski maktablar turmushidan", Maktab do'sti imzosi ostida "Turkiston maktablari", M.Rasuliyning "Bizda o'quv va o'qituv", Xolid Saidning "Jim o'tir, juvonmarg, gapurma xaromi!", Muftizodaning "Ulamolarimizga", Nushiravon Yovushevning "Maktab va muallimlarimiz", Mahmud Bediliyning "Musulmonlar hayotidan bir lavha", Karim Norbek o'g'lining "Bizim yoshlarga milliy tarbiya" kabi ta'lim va tarbiya mavzusiga doir maqolalari gazeta sahifalarida chop etib boriladi. "Umrlarin madrasalarda o'tkazgan mullalarimizning fikri va aqli shul darajasindadur", deb yozadi alam bilan muallif. "Qachon bizim kutubxonalarimiz aholi uchun zarur bo'lg'on turli kitoblar ila to'lu... Milliy matbuot degan so'zdan yolg'uz jarida va majallalargina fahmlanmasun. Kutubxonalarimizdagi totorcha kitoblar o'rnig'a muhim asarlarni qachon o'zimiz yoza boshlarmiz" [6]. Bu satrlar publisist Rauf Muzaffarzodaning "Yangi yildan eski tilaklar" sarlavhali maqolasidan olingan. Rauf Muzaffarzoda xalqning milliyligini saqlab qolgan holda turmush tarzini zamonaviylashtirishni madaniyatning bir belgisi deb hisoblaydi. Muzaffarzodaning "Sadoyi Turkiston" sahifalarida chop etilgan maqolalarida aynan shu masalalar o'rtaga tashlanadi. Uning "Millat krabi nima kutar", "Milliy hayot va Turkiston musulmonlari", "Madaniyat va biz", "Madaniy jarayon va milliy tariximiz", uch qismdan iborat "Madaniyat nardboni", "Din, millat milliyat ila qoyimdir", "Til va imlo masalasi" va boshqa bir qator maqolalarida Turkiston xalqi madaniyatining taraqqiyoti, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolari va isloh etish yo'llarini yoritishga harakat qildi. R.Muzaffarzoda yevropalik ma'rifatparvarlik harakati namoyandalarining asarlari bilan tanish bo'lgan. Binobarin, uning fikr-mulohazalari aksariyat hollarda yevropalik allomalarning nazariy qarashlari bilan yaqinligini ko'rishimiz mumkin. R.Muzaffarzodaning madaniyat va tarix haqidagi nazariy qarashlarida nafaqat Turkiston, balki taraqqiyotga muhtoj har qanday jamiyatni yorug'likka olib chiqish, rivojlangan millatlar safidan o'rin olish zarurligi kabi fikrlar o'rin olgan" [7].

"Milliy hayot va Turkiston musulmonlari" sarlavhali maqola Rauf Muzaffarzodaning eng muhim publisistik asarlaridan biridir. Unda muallif tomonidan "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalari hamda "Oyna" jurnalining Turkiston aholisi uchun yetarli emasligi, gazeta-jurnallarning ko'lamini kengaytirish masalasi ko'tariladi. Mavjud tanazzulli holatda matbuotni saqlab qolish, ayniqsa, unga iste'dodli yosh soha mutaxassislarini jalb etish, kuchli qalam sohiblarini ko'paytirish kabi dolzarb masalalar maqolaning asosini tashkil etgan. Bu borada yoshlarning faol ishtiroki lozimligi, ammo ularning aksariyati ijtimoiy-madaniy jarayonlarga loqayd qarayotganligi Muzaffarzodada nadomat tuyg'ularini uyg'otadi: "Hozirda Turkiston yoshlari shul qadar fikrsiz va ruhsizdurlarki bularning orzulari ham bobolarining orzulari ila barobardur. Milliy til, milliy adabiyot va matbuot havaskorlari yoshlardan biroz bo'lsa ham, yo'q masobasida ozdir.

Bularni haqincha taqdir etuvchilar har yuz mingtadan birgina kishi bo'lsa ham, Turkiston musulmonlarining hollari bir oz umidli bo'lur edi" [8].

Muallif mulohazalarining nechog'li teranligini maqola yakunidagi ushbu satrlardan ko'rish mumkin: "Bir zamonlar kelur, bu haqiqatlar shoyad maydonga chiqmasdan qolmas". Gazetaning 35-sonida bosilgan "Madaniyat nardboni" sarlavhali 3-qismdan iborat maqolada muallif fikrlarini yanada davom ettiradi. Matbuotni xalqning tili va odatlaridan xabardor qiluvchi fikr kishilarini maydonga chorlovchi madaniyat bayrog'iga qiyos etadi. "O'zimizning ona tilimizda milliy matbuot sahifalarida aholimizga ilm va madaniyat nima bo'lg'onligini har vaqt yozib turmak aholining maishat va ahvolidan va ona tilidan xabardor hamiyatli ziyolilarimizga teyishli bir vazifadur. Alar bul qarzni ustlaridan tushurmasalar, millat va aholi huzurida hech vaqt mas'uliyatdan qutula olmasliklari muqarrardur"[9]. Publisistning "Bizda ziyolilar va milliy matbuot" sarlavhali maqolasida ham jiddiy muammolar ko'tarilgan. "Millat ifrodini oqartirish maktab, ta'lim va tarbiya usullari ila boshlanur... Millatda himmat ahllari va ziyolilar ko'payturmak uchun ikki yo'l bor. Biri milliy matbuotni taraqqiy etdirmak, ikkinchisi yoshlarimizni muntazam ilm o'ylarig'a kirg'uzmakdir" [10]. Bu fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini aslo yo'qotmagan.Sifatli ta'lim va erkin matbuot xalq tafakkurining bebaho manbai. Shuning uchun ham R.Muzaffarzoda matbuotni yoshlarda shijoat ruhini uyg'otadigan asosiy vosita deb biladi: "Bunga matbuotdan boshqa hech bir quvvatli va ta'sirli iloj topilmas. Xalqimiz orasida oq fikrli va maorifparvar zotlar hozirlamak va bu soyada millatimizning moddiy va ma'naviy yordamiga yetishmoq uchun eng muhim va umidli chora milliy matbuotdir". Publitsist yana bir muhim g'oyani ilgari surgan. Millat o'z tilida matbuot bayroqdori bo'lishi kerak. Sir emas, o'sha paytlarda tilimizda juda ko'p ruscha, tatarcha, fors so'zlar zaruratsiz ishlatilgan, bu esa milliy tilning sofligiga zarar yetkazayotgan edi. Shuning uchun ham muallif "Ona tilisiz va milliy matbuotsiz dunyoda hech bir millat taraqqiy va madaniyat yo'liga qadam qo'ymaydi", degan qat'iy fikrni bildiradi [11]. R.Muzaffarzodaning bu qadar kuyinishiga muayyan sabab mavjud edi. XX asr boshlarida mahalliy aholi orasida matbuotni katta ijtimoiy kuch deb tanuvchilar kam edi. "Sadoyi Turkiston"ning atigi 1000 tagina obunachisi borligi bunga yorqin dalildir. Publisist "Taraqqiy", "Shuhrat"Xurshid" gazetalari ham obunachilari kamligidan keng ommaviylasha olmaganligini alohida ta'kidlab, matbuotni qanday rivojlantirish mumkinligini tushuntirib beradi. Buni uch u asosda ko'radi: boylar sarmoyasi, muharrirlar qalami, aholining e'tibori, ya'ni, obunachilar sonining ko'pligi. Shuning uchun ham uning 47-sonida "Hurmatlu vakil va mushtariylarimizg'a murojaat" sarlavhali tahririyat maqolasi e'lon qilinadi. Unda "Sadoyi Turkiston"ning moddiy mushkulotlari ochiq bayon qilingan. Gazeta tahririyati xalqqa murojaat qilib: "Matbuot – millatning oynasidur. Binoan alayha, millatning butun hayoti majmuasi matbuotida in'ikos etar. Biz o'zimizning nuqsonlarimizni yozmasak va ko'rsatmasak qachon isloh etilurmiz va qachon taraqqiy qilurmiz?" deya masalani keskin qo'yadi [12].

R.Muzaffarzoda matbuotni jamiyatning "islohchisi" deb ataydi."Yoshlarimiz g'ayrat qilsalar, boylarimiz yordam bersalar, muharrir va mualliflar qalamlari ila, muallim va muallimalar o'qutishlari, shoirlar she'rlari ila xizmatlarida mahkam turub xizmatlarida mahkam turub davom etsalar bizim millat o'z vaqtida oyoqqa bosub ketishiga aslo shubhamiz yo'qdur" [13] . Muallif "milliy matbuotning vazifasi nima", degan savolga javob berarkan: "Milliy matbuotning vazifasi millatning ehtiyojotin kuzatmak va maydonga chiqozub qo'ymak, eng muhim mavzularni aholi nazariga arz etmakdur", deya ta'kidlaydi.Rauf Muzaffarzodaning ma'rifatparvarlik, milliy matbuotga oid ilg'or g'oyalari xalqning siyosiy-huquqiy savodxonligini, milliy tafakkurini oshirishda, o'zbek milliy matbuotining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba hisoblanadi. Uning publitsistik merosi barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Jadid matbuoti haqidagi dastlabki ma'lumotlar orasida Z.Said, A.Avloniy, N.Abduazizova, M.Xudoyqulov, B.Do'stqoraev qalamiga mansub asarlar alohida ahamiyatga ega [13]. Mazkur asarlarda XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda chop etilgan milliy nashrlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, dosent Boybo'ta Do'stqorayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi va yosh olimlarning Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Cho'lpon, Hoji Muin va boshqa jadidlarning muharrirlik va publitsistik faoliyati bo'yicha dissertasiyalar himoya qilindi. "Al-Isloh", "Oyina", "Sadoyi Turkiston" gazetasi bo'yicha alohida tadqiqotlar yaratildi. Filologiya fanlari nomzodi, dosent B.Do'stqorayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi asl manbalarga asoslanganligi va tahlillarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ammo aynan Rauf Muzaffarzodaning milliy matbuot nashrlaridagi publisistik faoliyati alohida va to'liq hali tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jadid ma'rifatparvarlari milliy matbuot orqali o'lkadagi ijtimoiy illatlarni keng tahlil etgan. Xususan, "Sadoyi Turkiston" gazetasining deyarli barcha sonlarida maorif, milliy matbuot, adabiyot, teatr, xotin-qizlar savodxonligi masalasi o'rin olgan. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish lozim: "Hammamizga ayonki, taraqqiyot-

ning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham, bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [14]. Darhaqiqat, yosh avlodini imli, zukko va tadbirkor qilib tarbiyalagan xalq faqat taraqqiyot tomon qadam tashlaydi. Rauf Muzaffarzoda kabi jadid publisistlari aynan mana shu ilg'or konsepsiya asosida milliy taraqqiyot modellarini yaratib ketishgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). "Sadoyi Turkiston" gazetasida o'z davrining barcha nufuzli qalam ahllari ishtirok etgan. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Miskin, Tavallo, So'fizoda, Munavvarqori Abdurashidxonov, Rauf Muzaffarzoda kabi iste'dod sohiblari gazetaning chiqishiga munosib hissalarini qo'shganlar. Ular she'r, badiiy lavha va publisistik asarlari bilan shakllanib kelayotgan yangi adabiyot uchun poydevor qo'ydilar. Xalqchil adabiyot va uning rivoji uchun kurashdilar. "Sadoyi Turkiston" mana shu yo'lda qalam ahli Rauf Muzaffarzoda o'z maqolalarida milliy matbuotning eng asosiy vazifasini "millatning ehtiyojotin kuzatmak, va maydong'a chiqozub qo'ymak, eng muhim mavzularni aholi nazarig'a arz etmakdur", deya belgilab beradi va maqolalarida ifoda etilgan qimmatli fikrlar bilan milliy matbuot taraqqiysi uchun kurashdi. U millatni inqirozdan qutqarmoq uchun zamona ilmini, maorifni o'rganmoq lozim, degan fikrlarni maqolalari negiziga singdirdi. Bu ilg'or g'oyalarni o'rganish, yosh avlod tafakkuriga singdirish va amaliyotga tadbiq etish jamiyatimizni rivoji va tafakkur salohiyatini oshishiga, demokratlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). O'zMDA, TF-132, 1-ish, 20-varaq.

(2). Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga oid materiallar. T., "O'zdavnashr". 1927, 44-bet.

(3). "Sadoyi Turkiston", 1914-yil 19-noyabr, 48-son

(4). "Sadoyi Turkiston", 1914-yil 18-iyul.

(5). "Sadoyi Turkiston", 1915-yil 15-yanvar.

(6). "Sadoyi Turkiston", 1915-yil 6-yanvar.

(7). Mustafayeva N. Rauf Muzaffarzodaning "Sadoyi Turkiston" sahifalaridagi madaniy taraqqiyotga oid maqolalari. Milliy matbuotimizning ikki durdonasi – "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Fargona" gazetalarining o'zbek xalqini erk va hurriyat, milliy birlik va taraqqiyot g'oyalari ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, "MUMTOZ SO'Z", 2015, 58–59-betlar.

(8). "Sadoyi Turkiston". 1914-yil 29-iyul 31-son.

(9). "Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil,20-avgust.

(10). "Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil 18-oktyabr.

(11). "Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil 47-son.

(12). Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1915-yil 2-yanvar.

(13). Sh.Mirziyoyev. https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-uygonish-davri-poydevorini-yaratadi.

(14). Said Z. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar. 1870–1927, Toshkent–Samarqand, "O'zbekiston", 1927, 36-bet.

(15). Avloniy A. Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi. "Turkiston",1924, 24-iyun.

(16). Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T., "Sharq", 2002.

(17). Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T., "Ma'naviyat", 2009.